

**ANDIJON VILOYATI ULUG'NOR TUMANIDA 2021-2023 YILLARDA
AMALGA OSHIRILGAN TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISH
LOYIHASI NATIJALARINING TAHLILI**

Choriyev Baxtinur, Diyorov Jamshid, Tolipov Muhammad
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti MMT - 82 guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon valoyat Ulug'nor tumanida 2021-2023 yillarda tashabbusli budjetlashtirish jarayoni, ajratilgan mablag'lar miqdori, amalga oshirilgan loyihamalar talil qilingan.

Kalit so'zlar: tashabbusli byudjet, openbudget.uz axborot portali, tashabbus, ovoz berish, moderatsiya, ishchi komessiya, g'olib loyihami aniqlash, "Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi", shartnoma tuzish.

Jahon mamlakatlarida fuqarolarning byudjet jarayonida ishtiroy etishi shaffofik va ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish va korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Biz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti, mavjud holatni o'rghanish uchun Andijon viloyati Ulug'nor tumani misolida 2021-2023-yillarda "Tashabbusli byudjet" loyihami va ularning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishib chiqdik.

Quyidagi jadvalda Andijon viloyati Ulug'nor tuman tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar qay tartibda taqsimlanishi va sarflanishini ko'rdik. 2021-yil tashabbuslarni moliyalashtirish uchun 1 730 000 ming so'm ajratilgan, 2022-yilda esa keskin ortib 8 090 520 ming so'm va 2023-yil esa 8 338 370 ming so'm miqdorida mablag' ajratilgan.

Fuqarolarning ma'lum shakldagi byudjet qarorini qabul qilish jarayonida ishtiroy etishi demokratik boshqaruv shakllariga ega ko'plab mamlakatlarda deyarli XX asrning o'rtalaridan buyon amalda bo'lib kelmoqda. Biroq 80-yillarda bu amaliyot faol ravishda "texnologiyalashtirilib", ko'pgina davlatlarda mahalliy rivojlanish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish va ushbu qarorlarni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishda jamoatchilikning ishtiroyiga asoslangan turli xil innovatsion loyiha va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirila boshladi.

1-jadval

**Andijon viloyati Ulug'nor tumani tashabbusli budgetlashtirish uchun
yo'naltirilgan mablag'lar miqdori¹**

(ming so'mda)

T/r	Ko'rsatkich nomi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1.	Yil boshiga qoldiq	-	1 009 364	1 034 883
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	478 362	7 296 999	3 989 369
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	-	7 126 999	3 320 000
3.1.	<i>Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘</i>	-	7 126 999	-
3.2.	<i>Hisobvaraqlardagi qoldiq</i>	-	-	3 320 000
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	-	170 040	489 369

Tashabbusli budgetning dastlabki yilida “Fuqarolar tashabbusli jamg‘armasi”ga 478 362 ming so'm mablag' ajratildi. Andijon viloyati Ulug'nor tumani tashabbusli budgetlashtirish uchun 2022-yil hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar 7 296 999 ming so'mni tashkil qildi, bundan 7 126 999 ming so'm tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan bo'lsa 170 040 ming so'm qoldiq mablag' bo'lib qoldi. 2023-yilda esa jamg‘armaga ajratilgan mablag‘lar keskin kamayganini ko'rish mumkin - 3 989 369, bundan 3 320 000 ming so'm tadbirlarni moliyalashtirish uchun foydalanildi va keying yil uchun 489 369 ming so'm qoldiq mablag' qoldi. 2022 va 2023 – yillarda qoldiq mablag‘lar deyarli teng ko'rsatkichni ko'rsatdi va bu mos ravishda 1 009 364 va 1 034 883 ming so'mdan bo'ldi (1-jadvalga qarang).

¹ <https://openbudget.uz/boards/reports>

2-jadval

**Andijon viloyati Ulug'nor tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida
amalga oshirilgan tadbirlar²**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag'		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	Jami	15	14	3	1 730 000	7 127 000	3 320 000
1.	Hududiy ichki yo'llar	4	1	0	427 000	295 000	0
2.	Umumta'lim maktabalarini ta'mirlash va jihozlash	5	7	1	580 000	5 260 000	1 320 000
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	0	0	0	0	0
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	2	0	0	600 000	0
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	0	2	0	0	580 000	0
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	1	1	1	150 000	113 000	1 000 000
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	0	2	0	0	280 000	0
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	1	0	0	103 000	0	0
9.	Boshqa tadbirlar	4	0	1	240 000	0	1 000 000

Yuqorida jadvaldan ko'rinish turibdiki, 2021 – yilda g'olib bo'lgan loyihalar sonining ko'pligi, ammo ovozlar soni va ajratilgan mablag'lar miqdori boshqa yillarga nisbatan keskin farq qiladi. 4 ta ichki yo'llarni tamirlash va 5 ta umumiyo'rta ta'lim

² <https://openbudget.uz/boards/reports>

maktablariga aloqador tashabbuslar g'olib bo'lganligi, bu bo'yicha aholida yetarlicha muammolar mavjudligini ko'rsatadi va mablag'larning asosiy qismi ularga sarflangan. Umumiy o'rta ta'lim maktablariga aloqador tashabbuslar barcha yillar kesimida g'olib bo'lgan loyihalar soni va ularga ajratilgan mablag'lar bo'yicha ham eng baland o'rinni egallagan. 2022-yilda maktablar bo'yicha 7 ta loyiha g'olib bo'lib bu umumiy loyihalar sonining 50% ini tashkil qilishiga qaramasdan, ajratilgan pul mablag'inining deyarli 75% ini tashkil qildi. 2022 – yilda sog'liqni saqlashsektoridan(600 000 000 ming so'm ajratilgan) va ko'cha chiroqlarini o'rnatish bo'yicha(280 000 000 ming so'm ajratilgan) 2 tadan loyiha g'olib bo'lganligi ham e'tiborga loyiq. Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash masalasida ham har yili 1 tadan loyihalar g'olib bo'lgan va ularga ajratilgan mablag'lar yildan yilga ortib boryapti. 2023-yilda ham avvalgi yillarga o'xshab umumta'lim maktablarini ta'mirlash va ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha loyihalar g'olib bo'ldi va ularni moliyalashtirish uchun mos ravishda 1 320 000 va 1 000 000 ming so'm ajratildi (2-jadvalga qarang).

3-jadval

**Andijon viloyati Ulug'nor tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi
mablag'larining shakllanish manbalari³**

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar	0	4 550 000.0	3 000 000.0
Mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari	0	1 009 364.0	1 034 882.0
Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	528 362.4	2 235 863.0	989 369.0

³ <https://openbudget.uz/boards/reports>

Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	50 000.4	350 156	314 572.0	3-
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	478 362.0	876 343.0	674 797.0	
	Iqtisod qilingan mablag'lar	0	0	0	
	Jami ajratiladigan mablag'lar	528 362.4	7 795 227	5 074 251	

jadvalga ko'ra 2021-yilda tashabbusli budget uchun Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lib bu 528 362.4 ming so'm, ular asosan Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismiga to'g'ri kelgan holda 478 362.0 ming so'mni tashkil qildi va qolgan qismi erkin qoldiq mablag'laridir(50 000.4 ming so'm). 2022 – yilda ham mablag'lar shakllanishida o'tgan yildagiga o'xshash holatni ko'rish mumkin, ammo qo'shimcha sifatida Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar hisobidan 4 550 000 ming so'm va Mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'laridan 1 009 364.0 ming so'm ajratilgan va buning natijasida, boshqa yillar bilan taqqoslaganda 2022-yilda, boshqa yillarga nisbatan eng ko'p mablag' tashabbusli budget loyihibarini amalga oshirish uchun sarflangan. 2023 – yilda o'tgan yildan qolgan mablag'lar 1 034 882.0 ming so'm va umumiylar summaning asosiy qismi tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar hisobidan shakllantirildi(3 000 000 ming so'm). Qo'shimcha sifatida tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar 989 369 ming so'm bo'ldi.

4-jadval

Andijon viloyati Ulug'nor tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihibar tarkibi⁴

⁴ <https://openbudget.uz/boards/reports>

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to‘plagan ovozlar soni	Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag’ miqdori(ming so’m)
2021-yilda			
1.	Ulug’nor tuman Obod MFY Birdamlik kuchasini shagallashtirish	8	15 000
2.	<i>Ichki yo ‘llarni (piyodalar yo ‘lakchasi, yo ‘l o ‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog ‘liq tadbirlar (O’zbekiston MFY)</i>	18	250 000
3.	<i>Ichki yo ‘llarni (piyodalar yo ‘lakchasi, yo ‘l o ‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog ‘liq tadbirlar (Shaxriobod MFY)</i>	15	150 000
4.	<i>Ichki yo ‘llarni (piyodalar yo ‘lakchasi, yo ‘l o ‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog ‘liq tadbirlar (Yangiobod MFY)</i>	8	120 000
5.	Ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash bilan bog‘liq tadbirlar (Oq-tom MFY)	25	150 000
6.	Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bo‘lgan boshqa ob’ektlar) ni ta’mirlash-tiklash bilan bog‘liq xarajatlar(Shahriobod MFY)	15	25 000
7.	Ulugnor tuman Sariksuv MFY Xaydarobod maxallasidagi 24-umumta’lim mакtabini joriy ta’mirlash	125	250 000
8.	Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari (Murilarni toyalash Kelajak MFY)	85	100 000
9.	Ulug’nor tuman XTMFMT va TE bulimi markazlashgan.Yul xarakati xonalarini kurish (Bobur MFY)	19	30 000
10.	Ulug’nor tuman XTMFMTTE bulimi 9-umumta’lim mакtabi tom kismini ta’mirlash	13	150 000
11.	Ulug’nor tuman 13-umumta’lim mакtabi qurgon devorini ko’rish	16	50 000

12.	Ulugnor tuman markaziy dexkon bozoriga axlat soluvchi kontener o'rnatish	26	15 000
13.	Ulugbek mfy oltin devor kuchasini gazlashtirish	18	200 000
14.	Mahalla guzari (mahallada umumfoydalanishda bo'lgan boshqa ob'ektlar) ni ta'mirlash-tiklash bilan bog'liq xarajatlar (Shaxriobod MFY)	15	25 000
15.	Shaxriobod MFY Mustakillik ko'chasidagi Xotira xiyobonini qayta ta'mirlash	117	103 000

2022-yilda

1.	Sport muassasalarini ta'mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari (Shaxriobod MFY)	439	280 000
2.	Madaniyat bo'limini Tomoshalar zalini kapital ta'mirlash	478	300 000
3.	Ulug'nor tuman Nurobod MFY binosini ta'mirlash va Xovustol qishlog'ini 1500 m joyini shag'allashtirish	444	445 000
4.	Ulug'nor tuman Bo'ston mahalla fuqarolar yig'inini ta'mirlash	5390	439 000
5.	Sariq suv MFY arka va yoritish chiroqlari o'rnatish	545	90 000
6.	Ulug'nor tuman XTMFMTTE bo'limi 12-umumta'lim muktab issiqlik tizimini ta'mirlash	653	80 000
7.	Ulug'nor tuman XTMFMTTE bo'limi 9-umumta'lim muktabi issiqlik tizimini ta'mirlash	544	250 000
8.	Ulug'nor tuman XTMFMTTE bo'limi 15-umumta'lim muktabi binosini ta'mirlash	427	999 999
9.	Ulug'nor tumani 7-umumiy o'rta ta'lif muktabida sport zal hamda qo'shimcha bino rekanstruksiya ishlarini amalga oshirish	418	1 080 095
10.	Ulug'nor tuman Iminov OSHPni kapital ta'mirlash	420	300 000
11.	Ulug'nor tumani Tibbiyot birlashmasi qo'rg'on devorini o'rash	4543	300 000

12.	Ulug'nor tumani Terakzor MFY ko'chalariga ko'cha chiroqlari va arka pano o'rnatish	2645	229 000
13.	Sarik-suv MFY 9-umumta'lim mакtabini joriy tamirlash qurgon devor bilan o'rash va isitish tizimini yangilash lozim	4377	500 000
14.	Ulug'nor tuman XTMFMTTE bulimi 21-umumta'lim maktabiga stadion qurish	4224	1 200 000
15.	Ulugnor tuman XTMFMTTE bulimi 18-umumta'lim maktabi moddiy texnik bazasini yaxshilash	3904	229 000

2023-yilda

1.	Ulug'nor tuman kasb-hunar maktabida yaroqsiz xolatga kelib qolgan 1000 metr masofadagi ichmlik suvi tarmog'ini ta'mirlash	2899	1 320 000
2.	Ulug'nor tumani 20-umumta'lim maktabini sport maydonchasini ta'mirlash, sport zalni ta'mirlash	2884	1 000 000
3.	Sariqsuv mahallasi ichimlik suvi va oqava tizimini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar	3062	1 000 000

4-jadvaldan ko'rinish turibdiki "Tashabbusli budget"ning dastlabki yilda g'olib bo'lgan loyihalarning ovozlar soni sezilarli darajada kam bo'lgan(eng ko'p 125, eng kam 8 ta ovoz g'olib bo'lish uchun yetarli), bunga sabab qilib aholi orasida qiziqish, ishonch kam bo'lganligi va huquqiy savodxonlik darajasi yuqori emasligini keltirib o'tish kerak. Yana bir e'tiborga loyiq jihat bu har bir loyihaga ajratilgan mablag'lar miqdori keying yillardagiga nisbatan kamroq bo'lganini ko'rish mumkin, o'rtacha har bir loyihaga 98 000 ming so'm va eng kam 15 000 ming so'm, eng ko'p 250 000 ming so'm. 2022 – yil ovozlari soni bo'yicha ham juda katta o'sishga erishilgan bunda g'olib bo'lgan loyihalar orasida eng ko'p ovoz 5390 va eng kami 418 ta bo'ldi va bu o'tgan yilga nisbatan deyarli 50 barobarga ko'p degani, bu o'sishni har bir loyihaga ajratilgan mablag'larda ham ko'rish mumkin o'rtacha 448 000 ming so'm har bir loyihaga. 2023 – yilda g'olib bo'lgan loyihalarning har biriga katta mablag'lar jalb qilinishi kerakligi va ajratilgan mablag' ham o'tgan yilga nisbatan kamligi tufayli 3 tagina loyiha g'olib bo'ldi, va ularning olgan ovozlari soni deyarli bir xil 2900 atrofida. O'tgan davr mobaynida barcha ovozlarning barchasi sms orqali amalga oshirilgani ham e'tiborga loyiq (4-jadvalga qarang).

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'naliшlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент: "Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent: Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.: "Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хукуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'rroqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020

18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртларапо конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари. - Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo ‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Машарипов И. Б. Фуқаролик жамиятининг ривожланиш даражасини баҳолаш индекслари. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ.2018. 1/6 сон